

**NEVROZ KASALLIKLARIDA KELIB CHIQUADIGAN
PSIXONEVROTİK KASALLIKLAR**

Olimjonova Ziyat Bobamurod qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi

Eshqulova Gulzoda O'ktam qizi

Eshqulova Shahzoda O'ktam qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talablari

Annotatsiya: Mazkur maqolada nevroz haqida tushuncha, uning alomatlari, kelib chiqish sabablari yoritilgan. Nevroz kasalligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Psixonevroz; Nevrasteniya; Depressiv kasalliklar, Yatrogeniya, Didaktogeniya

Nevroz, psixonevroz, nevrotik buzilish, nevroz kasalligi ya'ni lot. neurosis "asab" uzoq davom etadigan funksional psixogen buzilishlar majmuasi. Bunday buzilishlarning klinik tasviri astenik, o'rnatib qoladigan fikirlar yoki jazava belgilari, shuningdek, aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatining vaqtinchalik pasayishi bilan ta'riflanadi. Nevroz tushunchasini tibbiyotga 1776-yilda shotlandiyalik shifokor Kallen tomonidan kiritilgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tibbiyot va biologiyada oliy asab faoliyatining turli funksional buzilishlari ham "Nevroz" deb nomlanadi. Nevroz asabning ortiqcha zo'riqishidan kelib chiqadi. Asabi tor odamlar nevrozga tez chalinishadi. Aqliy va jismoniy mehnatning nomuttanosibligi, doimiy hissiy zo'riqishlar, yaqin kishidan judo bo'lish, oila va ishxonadagi kelishmovchiliklar, qo'rqay va xavotirda yurish nevrozga sababchi bo'ladi. Nevrozning oila a'zolarida uchrashi uning rivojlanishida nasliy omillarning ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Yosh bolalarda nevrozning rivojlanishida uni o'rab turgan muhit, ayniqsa, ota-ona orasidagi janjallar sababchi bo'ladi. Bolalik davrida olgan tan jaroxatlar ham bundan mustasno emas. Nevroz nafaqat jaxildor odamlar, balki o'ta andishali odamlarda ham rivojlanishi mumkin. Ayniqsa, andishali odam janjalli voqealar ro'y berganda hissiyotga izm bermaslikka, o'zini boshqarib turishga harakat qiladi, bironi ko'nglini og'ritib qo'ymay deydi. Bu holatlar aksariyat hollarda, asab tizimining charchashiga sababchi bo'ladi. Shuningdek, vitaminlar yetishmovchiligi, kamqonlik, surunkali va og'ir kasalliklar ham nevrozga olib keladi.

Nevroz alomatlari va belgilari: ruhiy alomatlar

- ✓ Emotsional tushkunlik (ko'pincha aniq sabablarsiz).
- ✓ Ikkilanish.

- ✓ Ijtimoiy aloqa qilish muammolari.
- ✓ Noadekvat o'zini baholash: past yoki haddan ziyod ortiqcha.
- ✓ Tez-tez tashvish, qo'rquv hissi, «biron narsaning tashvishli kutilishi», fobiya,
- ✓ vahima hujumlari, vahimali buzilishlar.
- ✓ Qiymat tizimining, hayotiy istaklar va afzalliklar, kishining o'zi, boshqalar va umuman hayot to'g'risidagi fikrlarining noaniqligi yoki qarama-qarshiliklari. Kayfiyatning nobarqarorligi, tez-tez va keskin o'zgaruvchanligi.
- ✓ Qo'zg'aluvchanlik (*nevrastenya*).
- ✓ Stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik — ahamiyatsiz stressli voqeaga odamlar umidsizlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabat bildirishadi.
- ✓ Yig'loqilik.
- ✓ Hafachanlik, zaiflik.
- ✓ Tashvishlanish.

Psixotravmatik vaziyatga ko'p to'xtalib qolish.

•Ishlamoqchi bo'lganda tezda charchab qolish — xotira, e'tibor va fikrlash qobiliyatlari kamayadi.

•Baland tovushlarga, yorqin nurlarga, harorat o'zgarishiga sezgirlik.

•Uyquning buzilishi: odamning ortiqcha qo'zg'alganligi sababli uxlab qolish qiyin kechadi; uyqu yuzaki, tashvishlantiruvchi, tetiklik bermaydigan bo'ladi; ertalab ko'pincha uyquchanlik kuzatiladi

Davolash tibbiy psixolog, neyropsixolog va nevropatologlar tomonidan olib boriladi. Asab buzilishi bilan bog'liq bu kasallik tibbiy-psixologik muolajalardan so'ng samarali davolanadi. Davolash muddati va natijasi ko'proq uning to'g'ri olib borilishiga bog'liq. Dastavval nevrozga olib keluvchi sabablar aniqlanadi va iloji boricha bartaraf etiladi. Asosiy sabablar bartaraf qilinganda, aksariyat bemorlarda davolashni davom ettirishga hojat ham qolmaydi, ular tuzalib ketishadi. Lekin ba'zi hollarda nevrozning sababini aniqlash va ularni yo'qotish ancha mushkul.

Bemorning oilaviy ahvoli va ishlash sharoiti bilan tanishib, unga dam olib ishlash, ish soatlarini qisqartirish, ovqatlanish tartibiga rioya qilish, teatr va kinolarga borib turish tavsiya qilinadi. Nevrozni davolash uchun juda ko'p dori-darmonlar mavjud. Biroq ularni ko'p qo'llash kerak emas. Vrach tomonidan eng zarur dori tanlab olinadi va bemorga tavsiya etiladi. Bemorlarni davolashda ishlatiladigan aksariyat dorilar

kuchli sedativ ta'sirga ega bo'lganligi uchun ularni ishlab yurgan bemorlarga tavsiya qilib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нарметова, Ю. (2014). Депрессия-психосоматик касалликларнинг предиктори сифатида. *Scienceweb academic papers collection*.
2. Нарметова, Ю. (2014). Бемор аёлларда депрессия ҳолатининг психопрофилактикаси. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*.
3. Нарметова, Ю. (2017). Психология ва медицинада психосоматик ёндашувлар. *ЎзМУ хабарлари*.
4. Нарметова, Ю. К. (2022). ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ВА УЛАРНИНГ ОИЛА АЪЗОЛАРИНИНГ ПСИХО-ЭМОЦИОНАЛ ХОЛАТЛАРИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(12), 220-224.
5. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI PSIXOEMOTSIONAL HOLATLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(1), 89-92.
6. Rustamovna, A. S. (2023). XOTIRA BILAN BOG'LIQ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI. *Journal of new century innovations*, 26(2), 17-19.
7. Baxtiyor o'g'li, M. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN STRATEGIYALAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 20-21.
8. Ravshanovna, R. Z. (2023). PSIXOLOGIK KASALLIKLAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 22-24.
9. Akramovich, A. A. (2023). KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVCNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 17(5), 33-35.
10. Baxtiyarovna, S. D. (2022). BEMORDAGI NEVROTIK HOLATLARDA PSIXOLOGIK YONDOSHUVNING ZARURATI. *Scientific Impulse*, 1(3), 373-376.
11. Baxtiyarovna, S. D., & Ziyat, O. (2023). PSIXOSOMATIK KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOPROFILLAKTIK USULLAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 861-864.
12. Ziyat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.